

MILLIY VA INGLIZ SHARTNOMA HUQUQIDA SHARTNOMA SHARTLARINI BAJARMASLIK OQIBATIDA KELIB CHIQQAN JAVOBGARLIKNING QIYOSIY HUQUQIY TAXLILI

Ostanaboyeva Mavjuda Zafarjon qizi

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Barchamizga ma'lumki, fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari o'zlarining muayyan bir maqsadlari, rejaları asosida faoliyat yuritishadi. Ko'p hollarda ularga biznes hamkorlari yoki tadbirkorlik subyektlari bilan ikki tomonlama shartnomalar tuzish zaruriyati yuzaga keladi. Ushbu faoliyalari davomida tomonlar o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlarni belgilab beruvchi shartnoma va bitimlar asosiy kafolatlovchi omildir. Agarda taraflardan biri shartnomada belgilangan majburiyatni o'z vaqtida bajarmasa yoki lozim darajada bajarmasa, bu muayyan bir huquqiy oqibat keltirib chiqaradi va albatta o'ziga yuklatilgan majburiyatni bajarmagan tarafni javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Mazkur maqolada milliy huquq tizimimiz hamda ingliz shartnoma huquqida shartnoma shartlarini bajarmaslik oqibatida kelib chiqqan javobgarlik turlari, asoslarini o'rganib chiqib, o'zaro farqli va o'xshash jihatlarini tahlil qilamiz.*

Abstract: *As we all know, the participants of the civil-legal relationship operate on the basis of their specific goals and plans. In many cases, they need to conclude bilateral contracts with business partners or business entities. Contracts and agreements defining mutual rights and obligations between the parties during these activities are the main guarantee factor. If one of the parties does not fulfill the obligation specified in the contract on time or does not fulfill it properly, this will cause a certain legal consequence and will certainly be the basis for holding the party who did not fulfill the obligation assigned to him responsible. In this article, we will analyze the differences and similarities of the types of liability arising from non-fulfillment of the terms of the contract in our national legal system and the English contract law.*

Аннотация: *Как всем известно, участники гражданско-правовых отношений действуют исходя из своих конкретных целей и планов. Во многих случаях им необходимо заключить двусторонние договоры с деловыми партнерами или субъектами хозяйствования. Контракты и соглашения, определяющие взаимные права и обязанности между сторонами в ходе этой деятельности, являются основным*



гарантирующим фактором. Если одна из сторон не выполнит в срок или не исполнит предусмотренное договором обязательство, это повлечет за собой определенные правовые последствия и обязательно станет основанием для привлечения к ответственности стороны, не исполнившей возложенное на нее обязательство. В данной статье мы проанализируем различия и сходства видов ответственности, возникающей за неисполнение условий договора в нашей национальной правовой системе и английском договорном праве.

Kalit soʻzlar: *Shartnomaviy-huquqiy majburiyat, tadbirkorlik subyektlari, Anglo-sakson huquq tizimi, taraflar, javobgarlik asoslari.*

Key words: *Contractual-legal obligation, business subjects, Anglo-Saxon legal system, parties, bases of liability.*

Ключевые слова: *Договорно-правовое обязательство, субъекты предпринимательства, англосаксонская правовая система, стороны, основания ответственности.*

Shartnoma bu tomonlar oʻrtasida oʻrnatilgan yoki toʻxtatilgan (bekor qilingan) huquq va majburiyatlar toʻgrisidagi kelishuv, yo bitim. Tomonlar barcha muhim bandlar boʻyicha kelishgan holdagina (qonun talab etgan tarzda) shartnoma qabul qilingan hisoblanadi. Boshqa bir adabiyotlarda shartnoma tushunchasiga quyidagicha taʼrif berilgan: "Shartnoma — fuqarolik huquqida ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltirish, burchlarini oʻzgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi, bitimniig turi, sharhidan kelib chiquvchi fuqarolik huquqiy munosabat ham, shuningdek, yozma ravishda tuzilgan Shartnoma mazmuni bayon qilingan hujjat ham „Shartnoma“ termini bilan ataladi. „Shartnoma“ soʻzining sinonimi — kontrakt. Fuqarolar va yuridik shaxslar Shartnoma tuzishda erkindirlar. Shartnoma tuzishga majbur qilinishga yoʻl qoʻyilmaydi, Shartnoma tuzish burchi qonumajburiyatda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno”.

Ingliz shartnoma huquqida shartnomaning rasmiy taʼrifi mavjud emas. Biroq, oʻquv qoʻllanmalarda shartnomalarga “vaʼdalar almashinuvi” deb taʼrif beriladi yoki “shartnoma-qonun tomonidan tan olinadigan va ijro etiladigan majburiyatlarni keltirib chiqaruvchi kelishuv deyiladi. Shartnoma Huquqi bitimlarni qonuniy kuchga ega yoki yoʻqligini, shartnomaviy majburiyatlarning qonuniyligini hamda qaysi bitimlarga nisbatan sudda daʼvo qilish mumkinligini aniqlaydi. Ushbu funksiyalarni bajarishda romano-german va anglo-sakson huquqiy tizimlaridagi shartnoma huquqining yondashuvi bir-biridan farqlanadi. Ingliz shartnoma huquqi umumiy huquq tizimiga mansub boʻlganligi sababli, shartnomaga nisbatan



qo'llaniladigan qoidalar va prinsiplar kodifikatsiya qilinmagan. Ingliz shartnoma huquqining vujudga kelishi stare decisis prinsipiga asoslangan.⁶⁶ Shartnomalar tuzish va ularning bajarilishi ustidan nazorat tartibi, bajarmaganliklari natijasida kelib chiqadigan javobgarlik asoslari dunyoning turli davlatlarida qonunchilik tizimidan kelib chiqib farqlanadi. Masalan, anglo-sakson huquq tizimiga mansub davlatlar hisoblangan AQSH, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya kabi davlatlarda huquqiy doktrinaning pragmatik tabiati, birinchi navbatda, shartnoma javobgarligini huquqiy tartibga solish muammolari, shartnoma buzilishining oqibatlarini kabi aniq jihatlarga e'tibor qaratdi. Shartnoma buzilishi (breach of contract) konsepsiyasining asosiy qoidasi, ushbu munosabatlarning tuzilishini oldindan belgilab beradi ya'ni shartnoma bajarilmasligi natijasida yuzaga kelgan zarar uchun qarzdorning javobgarligi uni buzish fakti bilan asoslanadi. Qarzdor o'zining shartnomaviy majburiyatlarini bajargan yoki bajarmaganligi, ijroni kechiktirgan yoki kechiktirmaganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas, chunki shartnomaning buzilish (breach of contract) faktini ifodalash uchun va'da qilingan muvaffaqiyatga erishilmaganligi, qarzdor tarafidan berilgan kafolatning yo'qolishi fikoya. Bundan tashqari, zararni qoplashni talab qilish huquqining paydo bo'lishi sababi qarzdorning shartnomani bajarmaganligi uchun aybdor yoki yo'qligiga bog'liq emas.⁶⁷

Endi esa bevosita milliy huquq tizimimizda shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaslikning oqibatlarini tahlil qilib chiqamiz. Norma.uz saytida chop etilgan maqolada majburiyatlarni bajarmaslik va lozimdajada bajarmaslik oqibatlarini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksidan keltirilgan qonuniy asoslarga ko'ra yoritib berilgan. Unga ko'ra: "Majburiyatlarni bajarmaganlik va lozim darajada bajarmaganlikni farqlab olishimiz lozim. Bajarmaganlik shartnoma shartlarini (masalan, butunlay to'lovni amalga oshirmaslik yoki yetkazib berilgan tovar uchun to'lovdan bosh tortish yoxud ishlarni bajarishga rad etish va h.k.) to'liq bajarmaslikni bildiradi. Lozim darajada bajarmaganlik majburiyatlarni shartnoma shartlari va qonunchilik talablariga, bunday shartlar va talablar bo'lmaganida esa - ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga nomuvofiq bajarishni bildiradi. Masalan, to'lovni to'liq amalga oshirmaslik, nomuvofiq sifat va

⁶⁶ Ilg'orjon, Q. "INGLIZ SHARTNOMA HUQUQI TUSHUNCHSI, ELEMENTLARI HAMDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA INGLIZ HUQUQIDA SHARTNOMALARNING QIYOSIY TAHLILI". IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, June 2022, pp. 265-9, <https://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/2960>

⁶⁷ Doniyorbek Baxtiyor O'G'Li Imomniyozov, and Guljazira Shuraxanovna Atalikova. "INGLIZ VA MILLIY HUQUQIMIZDA SHARTNOMAVIY JAVOBGARLIKNING ASOSLARI" Central Asian Academic Journal of Scientific Research, vol. 2, no. 2, 2022, pp. 84-95.



assortimentdagi tovarni yetkazib berish, shartnomada ko'zda tutilganidan kam hajmda ishlarni bajarish va b. (FKning 236-moddasi).

Ko'rsatilgan farqlarni bilish va tushunish neustoyka institutini majburiyatlarni ta'minlash usullaridan biri, shuningdek fuqarolik qonunchiligida ko'zda tutilgan mulkiy javobgarlik chorasi sifatida qo'llash mohiyatini aniqlab olish uchun muhim.

FKning 260-moddasi birinchi qismiga binoan qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi neustoyka hisoblanadi.⁶⁸

Unga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

– neustoyka to'lash haqidagi talab bo'yicha kreditor o'ziga yetkazilgan zararni, talofatning miqdori va olinmagan daromadlar summasini isbotlashga majbur emas (FKning 260-moddasi birinchi qismi). U o'ziga shartnomaviy majburiyatlar olgan taraf tomonidan majburiyatlarni buzilishi sababli to'lanishi lozim;

– neustoyka to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilishi kerak (FKning 262-moddasi). Faqat mazkur holatda jabrlanuvchi tomon uni to'lanishini talab qila oladi. Bitimning yozma shakliga rioya etmaslik uning haqiqiy emasligiga sabab bo'ladi (FKning 115-moddasi);

– neustoyka bilan faqat haqiqiy talab ta'minlanadi. Boshqacha aytganda, agar FKning 260-moddasi bilan ko'zda tutilgan uning vujudga kelishi uchun asos bo'lmasa, uni to'lashni talab qilish mumkin emas. Shuning uchun neustoykani qo'llash uchun qarzdor tomonidan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik fakti bo'lishi kerak;⁶⁹

Demak yuqorida keltirilgan qonuniy asoslardan kelib chiqib ayta olamizki, milliy huquq tizimimizda taraflarning biri tomonidan shartnoma shartlari, va unda ko'rsatilgan majburiyatlari lozim darajada bajarilmasa, ko'p hollarda neustoyka, jarima, penya shaklida ustama to'lanadi. Agarda shartnoma shartlarini bajarishdan butunlay bosh tortsa, ya'ni shartnomani rad etsa unda iqtisodiy sud orqali taraflardan biri da'vo shaklida ishni hal qiladi.

Ammo ingliz huquq tizimida bu vaziyatda boshqacha yondashuv mavjud. Umuman olganda, shartnoma huquqining maqsadi, zulmga uchragan har qanday shaxs, agar buzilish sodir bo'lmasa, xuddi shunday iqtisodiy holatda qolib ketishini ta'minlashdir. Shartnomani buzish jinoyat yoki hatto huquqbuzarlik hisoblanmaydi va va'da qilingan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun jarima to'lovlari kamdan-kam hollarda to'lanadi, to'lovlar shartnomada ko'rsatilgan raqamlar bilan cheklanadi.

⁶⁸ https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/shartnomada_neustoyka_jarima_eki_penya

⁶⁹ <https://lex.uz/docs/-111189>



Misol uchun, agar siz shartnomada 50 000 AQSh dollari miqdorida maosh olishingiz ko'rsatilgan ishni tugatgan bo'lsangiz, lekin sizda atigi 20 000 AQSh dollari olgan bo'lsangiz, sizga 30 000 AQSh dollari miqdorida tovon puli berilishi mumkin. Odatda, shartnomasi buzilgan tomon shartnomada ko'rsatilganidek, dastlab qarzdor bo'lgan puldan ko'proq talab qila olmaydi. Biroq, zararni qoplash to'g'risidagi doktrinasi juda aniq holatlarda ba'zi istisnolarni taklif qiladi. Shartnomaning bajarilishiga tayanish boshqa bog'liq xarajatlarga sabab bo'lganligi isbotlangan bo'lsa, masalan, shartnomada basseyn quriladi degan taxmin asosida qutqaruv uskunalarini sotib olish mumkin bo'lsa, qo'shimcha pul to'lovlari berilishi mumkin.⁷⁰

Zarar fuqarolik-huquqiy javobgarlikning sharti sifatida. Shartnomani buzish natijasida kelib chiqadigan salbiy oqibatlarni ingliz huquqi bilan tartibga solish kontinental Yevropa mamlakatlari qonunlari bilan deyarli bir xil prinsiplarga asoslanadi ya'ni ingliz huquqida ham zarar moddiy va ma'naviy zararga ajratiladi.

Endigi navbatda biz ingliz huquqidagi shartnomalarning buzilish turlariga to'xtalib o'tamiz. Demak, tarafdardan biri vijdonan harakat qilmasa yoki shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasa, shartnoma buzilgan hisoblanadi. Shartnomani buzishning bir necha turlari mavjud:

Jiddiy buzilish: Shartnomaning jiddiy buzilishi shartnoma shartlarini jiddiy buzishdir. Tasavvur qiling-a, siz mashinaning ma'lum bir markasi va modeliga buyurtma bergansiz, lekin sotuvchi buning o'rniga boshqa modelni yetkazib beradi. Bu katta qoidabuzarlik, chunki siz aniq so'ragan narsangizni olmaysiz. Shunday qilib, bu shartnomaning jiddiy buzilishi hisoblanadi. Bunday qoidabuzarlik sizga, jabrlanuvchiga zararni qoplash yoki shartnomani bekor qilish va boshqa majburiyatlarni to'xtatish kabi qonuniy choralarni izlash imkonini beradi.

Kichik buzilish: Kichik buzilish ko'pincha "qisman buzilish" yoki "moddiy bo'lmagan buzilish" deb ataladi. Shartnoma taraflaridan biri shartnomaning kichik yoki unchalik muhim qismini bajarmaganida yuzaga keladi. Bu yangilangan g'ildiraklari bo'lgan mashinaga buyurtma berish kabi, lekin u o'rniga standart g'ildiraklar bilan keladi. Sotuvchi sizning spetsifikatsiyalaringizga to'liq yetkazib bermagan bo'lsa-da, asosiy narsa (mashina) yetkazib berildi. Bunday vaziyatda siz odatda shartnomani bekor qila olmaysiz. Biroq, etishmayotgan yangilangan g'ildiraklarni qoplash uchun zararni talab qilishingiz mumkin.

⁷⁰ <https://www.investopedia.com/terms/b/breach-of-contract.asp>



Kutilmagan buzilish: Tomonlardan biri so'z yoki harakatlar orqali shartnoma majburiyatlarini muddatidan oldin bajarmasligini ko'rsatsa, oldindan belgilab qo'yilgan buzilish sodir bo'ladi. Keling, mashina misolini yana bir bor ko'rib chiqaylik. Agar sotuvchi etkazib berishdan bir hafta oldin sizga mashinani etkazib bera olmasligini aytsa, bu oldindan belgilab qo'yilgan buzilishdir. Harakat qilish uchun yetkazib berish sanasi o'tishini kutish shart emas. Buzilishni kutgan holda, siz shartnomani bekor qilish yoki zararni qoplash uchun sudga da'vo qilish kabi choralarni izlashingiz mumkin.⁷¹

Shartnomani buzish natijasida ko'rilgan zarar, odatda, da'vogarga uning buzilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplatish uchun mo'ljallangan. Shartnomani buzish oqibatida ko'rilgan zarar to'g'risidagi sud qarorining maqsadi, da'vogarning mulkiy holatini avvalgi ya'ni shartnoma buzilishidan oldingi holatga keltirishdir. Ingliz huquqida zararni hisoblashning huquqiy asoslari shundan iboratki, qarzdor da'vogarning shartnomani bajarishga tayorgarlik ko'rishda va uning buzilishi sababli foydasiz bo'lib qolgan har qanday xarajatlarni qoplashi kerak. Shartnoma tuzilgunga qadar qilingan xarajatlar ham, agar taraflar shartnoma buzilgan taqdirda, bunday xarajatlar kelib chiqishini kutgan bo'lsa, qoplanadi.⁷²

Shartnoma erkinligi tomonlarga oqilona va adolatlilik tamoyillari doirasida o'zlarining maxsus manfaatlariga muvofiq himoya vositalarini belgilashga imkon beradi. Shu sababli, tomonlar birinchi navbatda buzilgan shartnomada o'zlari kelishib olgan himoya vositalariga, masalan, shartnomani tugatish bandi huquqiga ega. Agar tomonlar shartnomaga o'zlarining himoya vositalarini kiritmasalar yoki ular buni faqat qisman qilsalar, Fuqarolik Kodeksida belgilangan qo'shimcha umumiy himoya vositalari orqali hal etiladi.

Agar taraf o'z shartnoma majburiyatlaridan birini buzsa, unga ruxsat berilmagan bo'lsa, jabrlanuvchi quyidagilarni talab qilishi mumkin.

- (i) shartnoma majburiyatini aniq bajarish ;
- (ii) bajarishga muqobil ravishda zararlarni qoplanishini talab qilish; yoki
- (iii) shartnomani va majburiyatlarni bekor qilish.

⁷¹ Younas, A. ., & ogli, T. M. A. P. . (2021). Multinational Enterprises in Global Market Economy. International Journal of Development and Public Policy, 1(7), 137–143. Retrieved from <http://openaccessjournals.eu/index.php/ijdpp/article/view/820>

⁷² Doniyorbek Baxtiyor O'G'Li Imomniyozov, and Guljazira Shuraxanovna Atalikova. "INGLIZ VA MILLIY HUQUQIMIZDA SHARTNOMAVIY JAVOBGARLIKNING ASOSLARI" Central Asian Academic Journal of Scientific Research, vol. 2, no. 2, 2022, pp. 84-95.



Shuni esda tutingki, shartnoma erkinligi tomonlarga shartnomadan ba'zi umumiy himoya vositalarini chiqarib tashlashga imkon beradi.⁷³

Yuqorilardan kelib chiqib xulosa qilamizki, fuqarolik-huquqiy shartnomalar tuzishda taraflardan biri shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarmasliklari, shartnoma shartlariga rioya qilmasliklari muayyan bir javobgarliklarni keltirib chiqaradi. Asosan shartnomaviy majburiyatlar va ularning bajarmaslik, yoki lozim darajada bajarilmasligidan kelib chiquvchi javobgarlik roman-german huquqiy tizimida yaqqol o'z ifodasini topgan. Shunday bo'lsada, bazi bir o'ziga xos xususiyatlar anglo-sakson huquqiy tizimida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Har ikkala huquq oilasida ham shartnomaviy javobgarlik asoslari, darajalari va qiymati o'zlarining milliy qonunchiligidan kelib chiqib belgilangan va nazariy jihatdan asoslantirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ilg'orjon, Q. "INGLIZ SHARTNOMA HUQUQI TUSHUNCHSI, ELEMENTLARI HAMDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA INGLIZ HUQUQIDA SHARTNOMALARNING QIYOSIY TAHLILI". IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, June 2022, pp. 265-9, <https://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/2960>
2. Doniyorbek Baxtiyor O'G'Li Imomniyozov, and Guljazira Shuraxanovna Atalikova. "INGLIZ VA MILLIY HUQUQIMIZDA SHARTNOMAVIY JAVOBGARLIKNING ASOSLARI" Central Asian Academic Journal of Scientific Research, vol. 2, no. 2, 2022, pp. 84-95.
3. Younas, A. ., & ogli, T. M. A. P. . (2021). Multinational Enterprises in Global Market Economy. International Journal of Development and Public Policy, 1(7), 137–143.
4. Doniyorbek Baxtiyor O'G'Li Imomniyozov, and Guljazira Shuraxanovna Atalikova. "INGLIZ VA MILLIY HUQUQIMIZDA SHARTNOMAVIY JAVOBGARLIKNING ASOSLARI" Central Asian Academic Journal of Scientific Research, vol. 2, no. 2, 2022, pp. 84-95.
5. https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/shartnomada_neustoyka_jarima_eki_penya
6. <https://lex.uz/docs/-111189>

⁷³ <https://www.stibbe.com/publications-and-insights/remedies-for-breach-of-contract-what-when-and-how>





7. <https://www.investopedia.com/terms/b/breach-of-contract.asp>
8. Younas, A. ., & ogli, T. M. A. P. . (2021). Multinational Enterprises in Global Market Economy. International Journal of Development and Public Policy, 1(7), 137–143.
9. Doniyorbek Baxtiyor O'G'Li Imomniyozov, and Guljazira Shuraxanovna Atalikova. "INGLIZ VA MILLIY HUQUQIMIZDA SHARTNOMAVIY JAVOBGARLIKNING ASOSLARI" Central Asian Academic Journal of Scientific Research, vol. 2, no. 2, 2022, pp. 84-95.
10. <https://www.stibbe.com/publications-and-insights/remedies-for-breach-of-contract-what-when-and-how>

